
“MADANIYAT VA MA’RIFAT OYLI” DOIRASIDAGI TADBIRLAR DAVOM ETMOQDA



Qo’shtepa tumanidagi “Katta Beshkapa” mahalla fuqarolar yig’ini hududidagi 26-umumiy o’rta ta’lim maktabida "Madaniyat va ma’rifat" oyligi doirasida o’quvchilarni kitobxonlikka keng jalb etish maqsadida “Kutubxona nurxona” deb nomlangan ma’naviy-marifiy tadbir o’tkazildi.

O’quvchilar tomonidan ijro etilgan kuy-qo’shiqlar tadbirga yanada o’zgacha shukuh olib kirdi. Kitobni asrab-avaylash, o’zini kitob mutolaasi bilan band qilgan inson hayotda mashaqqatlar oldida tiz cho’kib qolmasligi g’oyasi ostidagi sahna ko’rinishlari esa hammani kitobga oshno qilishga xizmat qildi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2024-05-04 08:51:54